



UDK:811.521

Mohinur SOATOVA,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tayanch doktoranti
E-mail: mohinur97soatova@gmail.com

Dotsent, f.f.n B.Xoliqov taqrizi asosida

THE PROBLEM OF TRANSLATING HUMOROUS TEXTS

Annotation

Our article provides theoretical information and solutions to the problems encountered in the process of translating humorous texts, meaning that several important aspects must be taken into account in order to achieve an adequate translation. Although linguistics has already begun the study of wordplay, which is the basis for creating jokes and humor, the translator should think about how to reflect them in the target text, taking into account various features of the source language, for example, the dialects and vernaculars existing in the language, existing styles. Particular attention should be paid to these elements, especially if they are used to create a sense of laughter.

Key words: Expression of the feeling of laughter, literary text, translation problems, intercultural differences.

ПРОБЛЕМА ПЕРЕВОДА ЮМОРИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Аннотация

В нашей статье мы дали теоретическую информацию и решения проблем, возникающих в процессе перевода юмористических текстов, то есть для достижения адекватного перевода необходимо учитывать несколько важных аспектов. Хотя лингвистика уже давно начала изучать игры слов, которые являются основой для создания шуток и юмора, переводчик должен подумать о том, как отразить их в целевом тексте, учитывая различные особенности исходного языка, например, существующие в языке диалекты и говоры, существующие стили. Особое внимание следует уделить этим элементам, особенно если они используются для создания чувства смеха.

Ключевые слова: Выражение чувства смеха, художественный текст, проблемы перевода, межкультурные различия.

HAJVIY MATNLARNI TARJIMA QILISH MUAMMOSI

Annotatsiya

Maqolamizda hajviy matnlarni tarjima qilish jarayonida duch keladigan muammolar yuzasidan nazariy ma'lumotlar va ularga yechimlar berib o'tildi, ya'ni adekvat tarjimaga erishish uchun bir qancha muhim jihatlarni hisobga olish lozim. Garchi tilshunoslik hazil va hazil yaratishda asos bo'lgan so'z o'yinlarini o'rganishni ilgari boshlab yuborgan bo'lsada, tarjimon manba tilidagi turli xususiyatlarni, masalan, tilda mavjud lahja va shevalarni, mavjud uslublarni hisobga olgan holda, ularni maqsadli matnda qay tarzda aks ettirishni o'ylashi lozim. Ayniqsa bu elementlar kulgi hissini yaratish uchun ishlatilgan bo'lsa, ularga alohida e'tibor berishi lozim.

Kalit so'zlar: Kulgi hissini ifodalash, badiiy matn, madaniyatlararo tafovutlar, tarjima muammolari.

Kirish. Bizga ma'lumki, tarjima muammolariga turli xalqlar madaniyatlari o'rtasidagi farqlar, til tizimlari o'rtasida bir-biriga mos kelmaydigan qonuniyatlar va qoidalar kabi muammolar tarjima sohasida bir mavzuga joylashib keladi. Tarjimashunos olim G'aybullah as-Salomning fikriga ko'ra, bugungi kunda aksariyat tarjimalarning asosiy muammosi bu "badiiy tarjimaning badiiy ijod sohasi ekanligini unutib qo'yish, badiiy asarga xos jamiyki xislat va fazilatlar tarjima asariga ham daxldor ekanligini yetarlicha tushunmaslikdan yo'l qo'yilayotgan nuqsonlarda o'z ifodasini topmoqda" deya aytib o'tgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy asarlar tarkibida hajviy matnlarning kelishi tarjimonlarga yana bir masuliyat yuklaydi desak mubolag'a bo'lmaydi, ya'ni tarjimon asar tarkibida hazil mavjudligini tog'ri anglab yetishi, shu jumladan uni tog'ri talqin eta olishi, hajviy matnning asar tarkibida kelish sabablarini tog'ri anglab yetishi hamda ushbu hajviy matnni tarjimaga tog'ri bera olishi kabi bosqichlardan o'tadi. Bunda tarjimoniga ko'p yillik tajribasi, to'plagan bilimlari va ijodkorlik mahorati asqotadi. Hajviy matnlarni tarjima qilish va madaniyatlararo tafovutlar bo'yicha qilingan ishlardan xorijdan Patrik Zabalbeasko va Jan Pedersen asarlarini keltirishimiz mumkin. Unga ko'ra tarjimonlar hazilning yetti xil turini sanab, ular bo'yicha bir qator nazariy va amaliy ma'lumotlar berib o'tganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Hazilning birinchi turi bu – umumiy hazil: madaniyatga va tilga bog'liq bo'lmagan va har qanday joyda ham bir xilda oson qabul qilinadigan hazil turi. Bunday hazillar tarjima qilinganda o'zining mazmunini va

kulgililigini deyarli yo'qotmaydi. Shuning uchun ham bunday hazillar o'zining kulgi ta'siriga ega hazillar hisoblanadi.

Masalan, Ikkiti keks pechkada o'tiribdi. Ulardan biri ikkinchisiga qarab, "Voy! Bu yer juda issiq! debdi. Ikkinchisi esa "Aaa! Gapiradigan keksni birinchi marta ko'rishim" deb javob beribdi. Bunday hazil turlari hech qanday so'z o'yiniga yoki boshqa tilga xos elementlardan iborat bo'lmagan uchun ham hammaga bir xil ta'sir ko'rsatadi. Gapiruvchi buyumlar real hayotda mantiqsiz va g'ayrioddiy bo'lib ko'ringani uchun ham barchaga kulgili tuyiladi.

Hazilning ikkinchi turi bu – ma'lum madaniyatga xos hazillar: bunday hazillar ma'lum til va madaniyat vakillariga xos bo'lgan holda kulgili va tushunarli bo'ladi, biroq boshqa tillarga tarjima qilinsa, o'zining samaradorligini (kulgi uyg'otish imkoniyatini) yo'qotishi mumkin.

Masalan, "Vazirlar bu vaziyat bo'yicha aniq bir qarorga kelolmadilar" - degan fikrga ikkinchi bir odam "Oxirgi marta bunday qarorni qachon qabul qilganlarini men, tog'risi, eslay olmayman" deya javob beribdi. Ushbu misolda vazirlar (umuman olganda siyosatchilar) odatda ko'p hollarda original fikrga ega bo'lmashliklari haqidagi stereotipga asoslangan. Bu stereotip hamma xalq vakillarida bir xil fikr uyg'otmasligi mumkin.

Hazilning yana bir turi aniq bir xalq madaniyatiga xos bo'lgan turi bo'lib, bunday hazil turlari chet el auditoriyasi uchun tushunarli bo'lishi va kulgili ta'sirini saqlab qolishi uchun tarjima tiliga moslashtirilishi kerak.

Masalan, "Nima uchun britaniyaliklar hech qachon bekinmashoq o'yinini o'ynamaydilar?" - deb so'rashganda, chunki ularning choynagi ularni qayerda ekanliklarini doim bildirib

qo'yadi" deya javob beribdi. Bu hazil orqali britaniyaliklarning choyga bo'lgan o'zgacha sevgisini ifodalash maqsadida aytilgan. Bu variantni Amerika auditoriyasi uchun moslashtirilganda shunday bo'lardi: "Nima uchun amerikaliklar yashinmashoq o'yinini o'ynashmaydilar?" – deb so'raganda, chunki kimdir "Hot Pockets tayyor" deb baqirib yuborsa, yashirinib bo'larmidi – deya javob beribdi. Hot Pockets Amerikaning mashhur tez tayyor bo'ladigan taomi bo'lib, amerikaliklar bu taomni eng yoqimli va mazali oziq-ovqat hisoblashadi. Bu shuni anglatadi, kimdir bu taomni eshitganida yoki hidlaganida, u yashirinib o'rniga chiqib, taomga intiladi. Bunday hazillarni boshqa xalqlar tiliga moslashtirish uchun ushbu xalqlarning urf-odatlariga, kundalik turmush tarziga aylangan va barcha uchun osongina tushunarli bo'lgan odatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hazilning to'rtinchi turi bu – til bilan bog'liq bo'lgan hazillar bo'lib, ba'zan tarjimai qiyin va imkonsiz bo'lgan "tabiiy til xususiyatlari" bilan belgilanadi va ko'pincha tarjima tilida yangidan yaratilishi va moslashtirilishi kerak bo'ladi. Masalan, u mening yuragimni va hamyonimni o'g'irladi (He stole my heart and wallet). Bu yerda "stole" (o'g'irladi) so'zi "heart" (yurak) va "wallet" (hamyon) so'zlariga turli ma'nolarda taalluqli: "heart" so'zi majoziy ma'noda (seviz qolish ma'nosi), "wallet" uchun esa bevosita (mulkni egallash ma'nosida) qo'llanilgan. Bu misol so'z o'yinining eng oddiy va tushunilishi oson turi bo'lib, ko'p hollarda bunday hazillarni tog'ridan-tog'ri tarjima qilib bo'lmaydi va tarjimon hazilni qayta yaratishga majbur bo'ladi (bunda hazil ta'sirini saqlab qolish muhim).

Hazilning ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitish orqali kulgi yaratish usuli ham bo'lib, Zabalbeasko bunday hazillarni sof vizual va vizual hazil ko'rinishidagi lingvistik hazillarga ajratadi. Birinchi turda, hazillar ekranda ko'rinayotgan narsalarga asoslanadi va tilidan qat'i nazar tushuniladi. Ular tilga oid so'z o'yinlari yoki madaniy havolalarga tayanmaganligi sababli tushunarli bo'ladi. Bunday hazillar so'zga emas, harakatga asoslanadi. Shuning uchun ham bunday hazillar vizual belgilar orqali kulgi uyg'otadi. Ikkinchi turida esa, tilga bog'liq vizual hazillar tilga asoslangan so'z o'yinlari yoki hazilning vizual tasviriga tayanadi va ularni tushunish tilga xos bo'ladi. Umuman olganda vizual hazillarda so'zlarni yoki fikrlarni ifodalash uchun rasmlardan foydalaniladi va ularning tarjimai juda qiyin va umuman imkonsizdek tuyiladi.

Hazilning so'ngi turi yuqorida tilga olingan bir nechta turlarni o'zida birlashtiradi. Bunday hazillar madaniy va lingvistik konteksti, shuningdek, asliyat tilidagi hazilning ta'sirini saqlab qolishi muhim. Masalan, "Nega Gamlet qaror qabul qilishga bunchalik uzoq vaqt o'ylanib qoldi?" degan savolga "Chunki uni bo'lish yoki bo'lmaslik masalasi qiyinayotgan edi" – degan yengil hazilomuz javob beradi. Hazil SHEkspirni biladigan auditoriya uchun samarali ishlaydi. Hazilda madaniy va lingvistik shaklda yaratilgan hazil bo'lib, aynan hazilning aralash turiga misol bo'la oladi.

Zabalbeasko hazilni tarjima qilish yuzasidan asari orqali nafaqat hazil turlarini klassifikatsiyalash, balki ularga amaliy tavsiyalar berish uchun hazilni tarjima qilishning beshta mumkin bo'lgan yechimini tavsiya etadi. Ularga: 1. Hazil sifatini ham shakliy ham mazmun jihatdan o'zgarib ketmasligiga imkon beradigan imkoniyatlardan to'liq foydalanish; 2. Tarjimada hazil turi bilan bir xil bo'lgan usuldan foydalana olish (masalan, agar hazil so'z o'yiniga asoslangan bo'lsa, aynan shu turdagi so'z o'yinida hazilni berish); 3. Hazil tarjimasini boshqa bir muqobil variantiga o'tkazish, ya'ni hazil saqlanadi va kulgi hissi ham mavjud bo'ladi, ammo asliyat matni shakli tarjimada ko'zga tashlanmaydi. Maqsad auditoriya uchun kulgili bo'ladigan yangi versiya taqdim etishdan iborat; 4. Keyingi usul bu kompensatsiya usuli bo'lib, hazilni ifodalashning boshqa usulini tanlaydi,

masalan, taqqoslash yoki oddiy tushuntirish yo'li orqali. Shunday qilib tushunish osonlashadi ammo hazilning kulgi yaratish kuchi ma'lum darajada yo'qoladi. Bu usulni yozuvchi "o'g'rilik deb nomlaydi, chunki bunda hazil butunlay yo'qoladi va maqsad hazilni yetkazish emas, balki ma'lumotni taqdim etish bo'ladi".

Tahlil va natijalar. Zabalbeaskoning yuqorida keltirilgan hazillar klassifikatsiyasi hazilning o'ziga xos turini belgilaydi va hazilni tarjimada tahlil qilish uchun keng qamrovli yondashuvni taqdim etadi. Keltirilgan misollar har bir hazil turining amaliy qo'llanilishi va oqibatlarini ochib beradi hamda madaniyat va til o'rtasidagi dinamik bog'liqlikni ko'rsatadi. Ishimizda bunday klassifikatsiyalash hazillarni amaliy tahlil qilish jarayonida asos vazifasini o'taydi.

Hajviy matnlarni tarjima qilish muammosi bir madaniyatga xos bo'lgan odamlar, xalqning tarixi, turli xil voqealar va odatlar boshqa madaniyatlarda tushunarsiz bo'lganda yuzaga keladi. Bugungi kunda, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda odamlarning kulgili kontentlarni tomosha qilishga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Insonlar asosan umumiylikka ega va hamma uchun bir xilda tushuniladigan hazil turlariga e'tibor qaratishadi, chunki bunday hazillar dunyo bo'ylab tushunarli va osongina qabul qilinadi. Kontent qanchalik neytral bo'lsa, shunchalik ko'proq odamlar uni tomosha qiladi, aksincha madaniyatga xos bo'lgan materiallar faqat o'sha madaniyat vakillari tomonidagina qiziqib ko'riladi. Masalan, ba'zi odamlar so'ngi yillarda maqollarni boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilishganlarida, ularning asl ma'nosi yo'qolganligini ko'rishimiz mumkin. Hajviy matnlarni tarjima qilganimizda ham xuddi shunday jarayon sodir bo'ladi, ya'ni tarjima asliyat matn qonuniyatlariga mos bo'lsada, unda anglashilgan ma'no yo'qoladi va tarjima tilida hazil kulgi yaratish vositasi kabi vazifani bajarmasligi mumkin.

Madaniyatni hisobga olmaganda, tarjimonlar oldidagi eng katta bahs-munozaralardan biri asliyat matn tiliga sodiq qolish yoki uni moslashtirish zarurligidir. Hajviy matnlar tarjimasiga kelsak, ko'plab tarjimonlar asliyat matnini to'liq va o'zidek takrorlash yaxshi variant emasligini tan olishadi. Agar hajviy matn tarjimai so'zma-so'z amalga oshirilsa, tarjimada kulgi hissi tushunchasi yo'qolishi mumkin. Shunday qilib, hajviy matnlarni tarjima qilish borasida ikki xil qarama-qarshi yondashuvning mavjudligini ispan tilshunos olimi Zabalbeasko 2005-yilda o'z ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tgan. Birinchi yondashuv, ya'ni "asliyat matniga sodiq qolish," tarjimini so'zma-so'z tarjima qilish orqali asliyat matn qonuniyatlariga sodiq qolish bo'lsa, ikkinchi yondashuvda esa kulgini boshqacha tarzda, ya'ni madaniy va lingvistik o'zgarishlar bilan tarjima tiliga moslashtirishdan iborat. Birinchi yondashuv orqali biz matnning asosiy ma'nosiga zarar yetkazib qo'yishimiz mumkin va bunday tarjima ko'plab olimlar tomonidan rad etilgan. Ikkinchi yondashuv orqali qilingan tarjima asliyatga shakl jihatdan mos tushmasada, ma'no jihatdan muqobil variant topishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tarjimada madaniyatlararo kulgini saqlab qolish uchun tarjimon madaniy kontekstni chuqur tushunib, kulgining asosiy xususiyatlarini va uning ta'sirini o'zgartirmasdan, maslashtirishga harakat qilishlari lozim. Kognitiv va pragmatik jihatlar, shuningdek, madaniyatlararo farqlarni hisobga olishu, kulgi hissinu muvaffaqiyatli boshqa tilda ifodalashda (transfer qilishda) muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar o'z ijodkorligini va kreativlik qobiliyatini ishlatgan holda, ba'zan madaniy kontekstga mos yangi ifodalarni qo'llash orqali kulgi hissinu saqlab qolishga erishishlari mumkin. Boshqacha aytganda, hazilni tarjima qilish yoki madaniyatlararo almashishlarda asosan madaniy farqlarni va kulgining kontekstini to'g'ri anglay olish tarjima ishini yanada samarali qiladi.

ADABIYOTLAR

1. G'aybulloh as-Salom. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2003. 29-b.
2. Zabalbeascoa, P. Humor and translation – an interdisciplinary. International Journal of humor Research, 18(2). 2020.185-207p. <https://doi.org/10.1515/humor.2005.18.2.185>.
3. Zabalbeascoa, P. Translating jokes for dubbed television situation comedies. The Translator, 2(2).1996. 235-257 p.
4. Pedersen, J. Subtitling norms for television: An exploration focussing on Extralinguistic cultural references. John Benjamins Publishing, 2018.
5. Attardo, Salvatore. Linguistic Theories of Humor. Berlin and New York. Atherton, 2021.

6. Wickberg D. The Senses of Humor Self and Laughter in Modern America. Cornell University Press, 2018. 280 p.
7. Raskin V. Semantic mechanisms of humour. Holland: D. Reidel Publishing Company, 2016. 284 p.
8. Khalida Hamid T. Translating Cultural Humour: Theory and Practice. University of Baghdad.
9. Abaeva E. S. [Problems of translating extracts with humorous effect from Russian into English]. In: Russkii yazyk i kultura v zerkale perevoda. Vyp. 1 [Russian language and culture reflected in translation], Moscow, Higher School of Translation, Lomonosov Moscow State University Publ., 2017, pp. 7–16. Z
10. Vandaele J. Introduction. (Re-)Constructing Humour: Meanings and Means // The Translator. 2002. Vol. 8. Iss. 2. P. 149–172. DOI: 10.1080/13556509.2002.10799130.